

O’SMIRLAR PSIXOLOGIYASIDA AXBOROT HURUJIGA QARSHI MA’NAViy-AXLOQiy IMMUNITET HOSIL QILISHDA OILANING O’RNI

Andijon shahar 48-maktab
boshlang’ich sinf o’qituvchisi
Muminova Donoxon Odilovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabasi
Abidova Maxpiratxon Xusanboyevna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410753>

Anotatsiya : Mazkur maqolada o’smirlar psixologiyasida axborot hurujiga qarshi immunitet hosil qilishning ahamiyati yoritilgan. O’smirlar hayotiga kirib kelgan tele, audio, multimedia mahsulotlari va internetdagi vositalar bolalar va yoshlarning psixik va psixoemotsional holatiga bosim o’tkazishini va ularni zimdan boshqarishi asoslab berilgan. Bunday vaziyatlarda oilaning o’rni va vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: o’smirlar, psixik holatlar, axborot hurujlari, milliy qadryatlar.

Аннотация: В Данной статье подчеркивается важность фарверования иммунитета к информационим атакам в психологии подростков Утверждается, что телевидение, аудио-мультимедийны продукты а также интернет-инструменты, вошедшие в жизнь подростков, оказывают давленте

на психическое психоэмоциональное состояниун детей имолодежи подсознательно контролируют их. Анализируется роль и задачи семьи в подобных ситуацях.

Abstract: This article highlights the importance of building immunity against information attacks in adolescent psychology. It is argued that television, audio. Multimedia productand internet tools that have entered the lives of adolescents exert pressure on the mental and psycho-emotional state of children and young people

and control them subconsciously. The role and functions of the family in such situations are analyzed.

Keywords: adolescents, mental states, information attacks, national values.

Kirish qism. Bugungi axborot texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bir davrda o’smirlarga axborotlarni tez va keng miqdorda yetkazib berish orqali ijobiy yordam ko’rsatayotgan bo’lsa, internetdan turli qo’paruvchilik va tajovuzkorlikka undovchi audio, tele va multimedialar orqali salbiy ta’sir ham ko’rsatib kelmoqda. Bu axborot vositalarining barchasi bolalar va yoshlarda psixik va psixoemotsional holatiga bosim o’tkazish, ularni zimdan boshqarish axboriy- psixologik ta’sir ko’rsatib kelayotganligida namoyon bo’ladi. Yoshlar psixologiyasida ko’rgan va eshitgan narsalariga ishonuvchanligi, axborot hurujlariga hali immunitet rivojlanmaganligini hisobga olib shuni aytishimiz kerakki, bu borada oila va oiladagi muhit muhim o’rin tutadi. Farzandlarimiz maktabda rejali tashkil qilingan sharoitda vaqt o’tkazadi. Lekin uydagi muhit va uni to’g’ri tashkil qilinganligi hamma oilada ham bir xil emas. Bu borada oilalarda yoshlarni vaqtlari to’g’ri va rejali tashkil etilishi zarur. Insonlarning intellektual salohiyati tez rivojlanib borar ekan, hozirgi axborot texnologiyalar davrida bolalar va yoshlarni hayotini internet va mobil olamisiz tasavvur etishimiz juda ham qiyin. Bugungi kunda dunyo mamalakatlari aholisining har biri mobil olamda yashaydi desak mubolag’a bo’lmaydi. Dunyoning har bir chekkasida insonlarga axborot hurujlari taxdid solayotganini inobatga olib shuni aytishimiz joizki, bu mavzu dunyo bo’ylab dolzarb mavzu hisoblanadi. Dunyo aholisini ko’pchiligi axborot hurujlari va kiberjinoyat qurbonlariga

aylanmoqda. Yoshlarni internet va media vositalaridan to‘g‘ri va umumli foydalanishini nazorat qilish har bir fuqoroning burchi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Eng avvalo yoshlar va bolalarga oilada milliy mafkuramizni, insoniylik fazilatlarini, axloqiy qadryatlarni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch asari” da “Biz yoshlarning ma’naviyatini to‘g‘ri shakllantirsak, milliy qadriyatlarimizni ardoqlaydigan, o‘z tarixini, ajdodlarini taniydigan, vatanni ertasini ko‘ra oladigan yuksak fazilatli qilib tarbiyalansa ularni hech bir kuch va taxdidilar yenga olmaydi” [2:54] deb aytib o‘tganlar.

Rossiya psixologi Ushenskiyning “Inson tarbiya predmeti asari” da inson tarbiyasi haqida eng muhim fikrlarini ifodalagan. Uning fikricha ta’lim va tarbiyaning asosiy vazifasi – ta’lim va tarbiyani maqsadini aniqlash, va uning natijasini to‘g‘ri baxolashdir. Bundan ko‘rinib turibdiki yoshlardagi tarbiyani maqsadli tashkil etishimiz va uni natijasini tog‘ri baholay olishimiz zarur. Bizga ma’lumki o‘smirlik va o‘spirinlik davri eng ko‘p streesga uchraydigan davr xisoblanadi. Professor Do‘stmuhammedov “Mazkur yoshdagi bolalarning psixologik hususiyatlarini bilmay turib, unga maqsadli ta’lim –tarbiya berib bo‘lmaydi”[3:8]degan fikrlarni aytib o‘tadi.

P.N.Leventuyev fikricha, - O‘smir xulqidagi tuturiqsizlik qo‘zg‘alish va tormozlanish protsessidagi muvozanatsizlik yoki oiladagi tarbiyada bo‘ladigan ziddiyatlar yoki maktab va oila talablari orasida birlik bo‘lmashligi yoki boshqa turli xarakterdagi qiziqishlar natijasida hosil bo‘lishi mumkin. Bu sabablar xatti-harakat va e‘tiqod o‘rtasida tafovut keltirib chiqarishi ham mumkin degan fikrlarni olg‘a suradi. Bu fikrlar bizni o‘smirlar ijtimoiylashuvida emotsional intellekt muhim psixologik omil ekanligini ochib berish talabini qo‘yadi. “Chunki o‘smirlarning xatti-harakatida keskin, uning uchun begona bo‘lgan joylarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. Yoshlarni o‘smirlik va o‘spirinlik davrida ijobiy va salbiy fazalarni kuzatilishini, psixologiyasida nomutanosiblik yuzaga kelishini, xarakteridagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda oilada ko‘proq qamrab olishimiz va ko‘proq suhbatlashib uning o‘z olamini his etishimiz zarurdir. Yana bir Rus psixologi L.Bojavik ilk o‘spirinlik davri shaxsning motivatsion sohasini rivojlanishiga urg‘u beradi. Bu davrda hayotda o‘z o‘rnini va ichki pozitsiyasini aniqlaydi, dunyoqrashi shakllanadi, o‘z–o‘zini anglaydi axloqiy ong ta‘siri kuchayadi deb hisoblaydi. Yoshlarni hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun avvalo oiladagi o‘rni muhim hisoblanadi. Ko‘p hollarda o‘smirlik davrida ko‘p ota –onalarda farzandlarini kichkina hisoblaydi va ularning psixik holatlarini anglamasdan munosabatlarda ziddiyatlarga duch keladi. Yoshlar bu davrda qiziquvchan va ishonuvchan bo‘lishi ularni internet olamidagi turli diniy oqimlarni guruhlariga qo‘shilib qolishi, turli havolalar orqali noqonuniy narkotik savdosiga aralashib qolishi, mumkin bo‘lmagan diniy nashidalarini tarqatishida ishtirok etishi, kiber - jinoyatlarni amalga oshirish holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Xulosa. Avvalo yoshlar – vatanimiz poydevori hisoblanadi. Glaballashib borayotgan davrda yoshlarimizni IT sohasiga qiziqishini oshirish siyosiy masala bo‘lib ko‘tarilgan. Bu borada yurtimizda islohatlar olib borilmoqda. Shahar va tumanlarimizda tashkil etilayotgan IT parklar fikrimizni yaqqol misolidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Biz kelajagimizni mard va zamonaviy yoshlar bilan quramiz ”nomli asarida bu masalada mohiyatli va mazmunli fikrlarni uchratishimiz mumkin. Yoshlar tarbiyasi albatta muhim, lekin ularni dunyo yoshlari bilan raqobatlasha oladigan intellektual salohiyatga ega, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanadigan, kreativ fikrlaydigan bo‘lib ulg‘ayishida ta’lim muassasasi bilan birga oilaning ahamiyati juda muhimdir. Biz bilamizki psixologik nazariyalarni o‘rganganimizda bolalarning har birida qobiliyat mavjud bo‘ladi. Buni rivojlantirish uchun ota-onalardan ularni qiziqishlariga e‘tibor berish, qobiliyatlarini to‘g‘ri shakllantirish uchun shart sharoitlar yaratish va ularni ijodiga to‘g‘ri baholab motivlarini shakllantirish va motivatsiya berish zarur.

Mobil telefon va kompyuter ko‘p o‘ynaydigan farzandlarini bu qiziqishini to‘g‘ri yo‘naltirilsa, ularni nazoratsiz qoldirmasdan IT sohasidagi o‘quv kusrlariga jalb qilinsa, ular turli foydali dastur yarata oladigan mutaxassis darajasiga yetishi mumkin. Yoshlar o‘rtasida shaxsiy ma’lumotlarni video yoki rasm tarzida shantaj ko‘rinishida taxdidlar ko‘p uchraydi. Bunday hollarda o‘smirlarda ruhiy tushkunlik, moddiy yetishmovchilik, o‘z joniga qasd qilishgacha bo‘lgan holatlar kuzatiladi. Axborot hujumlariga qarshi immunitet hosil qilishda yoshlar huquqiy imkoniyatlarini bilishi juda muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham “Har kim o‘z shaxsiga doir noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega. Davlat internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi” deb belgilab qo‘yilgan. Yoshlarni har tomonlama bilimli va chidamli qilib tarbiyalash, ularni kelajagini mustahkam bo‘lishida muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. “Biz kelajagimizni mard va zamonaviy yoshlar bilan birga quramiz” UZB NMIU2017, ISBN 8789-9943-28-982-6, UBK 322(575,1) KBK66,3(50)M54
2. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari
3. SH.A.Do‘stmammedova “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya”, “ Fan va texnologiyalar bosmaxonasi”da chop etilgan 100066 Toshkent Olmazor ko‘cha 171- uy
4. Alisherova, Z. (2025). O‘smirlarning o‘zaro munosabatlaridagi muloqot jarayonida emotsional intellektni o‘rni. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2(4.2), 544–546. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/2156>
5. Tolibdjanovna, A. Z. (2022). The Essence of Foreign Psychologists and Eric Fromm and IBN Sina's Theories in the Formation of the Person to Develop. *Middle European Scientific Bulletin*, Vol. 25 (2022), pp. 17-20.[Online ISSN 2694-9970][cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/1344/1275].